

## TILSHUNOSLIKDA “DISKURS” TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLARI

**Niyozov Ibrohim Yoldosh o‘g‘li**

O‘zbekiston Milliy universiteti,  
Lingvistika (fransuz tili) I kurs magistranti.

**Annotatsiya.** Mazkur maqola tilshunoslikda mavjud bo‘lgan “diskurs” tushunchasi va uning og‘zaki va yozma shakllariga bag‘ishlangan bo‘lib, maqolada diskurs bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** diskurs, matn, kognitiv tilshunoslik, predmet, dialogik, monologik, pragmatik tilshunoslik.

**Аннотация:** Данная статья посвящена существующему в лингвистике понятию “дискурс” и его устным и письменным формам, в статье обсуждаются исследовательские работы по дискурсу.

**Ключевые слова:** дискурс, текст, когнитивная лингвистика, предметная, диалогическая, монологическая, прагматическая лингвистика.

**Annotation:** This article is devoted to the concept of “discourse” contained in linguistics and its oral and written forms, and the article discusses the research work carried out on discourse.

**Keywords:** discourse, text, cognitive linguistics, subject, dialogical, monological, pragmatic linguistics.

Lotincha “diskursus” so‘zidan olingan diskurs so‘zi etimologiyasiga ko‘ra, bir yerdan boshqa yerga yugurish ma‘nosini anglatadi. “Bas latin” ya‘ni milodiy VII asrgacha so‘zlashilgan lotin tili versiyasida esa u “muloqot”, “suhbat” ma‘nolarida qo‘llanilgan. Fransuz tilidan o‘rganganimiz “discours” shakli esa, XVI asr I yarmiga kelibgina paydo bo‘ldi.

Ayni vaqtda tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar sifatida tan olingan kognitiv tilshunoslik va shu bilan birga pragmatik tilshunoslikning ham asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir.

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs ma‘lum bir mavzu bo‘yicha uslubiy tarzda olib boriladigan va auditoriyaga yo‘naltirilgan nutq, so‘z olish(so‘zga chiqish) deya izohlansa, metonimiya bo‘yicha unga nutqning yozma matni sifatida qaraladi.

Diskurs so‘zi fanda birinchi marotaba XX asr o‘rtalarida amerikalik tilshunos olim Zellig Xarris tomonidan qo‘llanildi va unga ayni vaqtda, lingvistikaning asosiy masalalaridan birini ifodalaydigan omil sifatida qaralmoqda. Z. Xarrisdan keyin ko‘plab olimlar diskurs tushunchasiga o‘z ta‘riflarni keltirib o‘tgan. G‘arb tilshunosligida esa, diskurs tushunchasi dastlab, tilning gapdan yuqori turuvchi sathi sifatida tahlil qilindi.

“Insonning tilga ehtiyoji har bir shaxsning o‘zligini namoyon etish istagi bilan bog‘liq” (Gertman 1996: 90)<sup>160</sup> bo‘ladigan bo‘lsa, lison, har bir til ham o‘z imkoniyatlarini namoyon eta olishi uchun shaxsning lisoniy, diskursiv faoliyatiga muhtojdir.

<sup>160</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika. -T.:2008. – 250-b

Diskurs bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar olib borgan tilshunos olim Y. S. Stepanov diskursga: "Diskurs – ma'lum grammatik va leksik sxemalar qo'llanishi natijasida o'ziga xos mentalitet yoki mafkurani ifodalovchi tildan foydalanish tizimidir"<sup>161</sup> deya ta'rif berdi.

So'nggi paytlarda zamonaviy lingvistik tadqiqot materiallarida diskurs bir nechta tiplarga ajratilmoqda. Bularga quyidagilarni misol qila olamiz: harbiy, pedagogik, siyosiy, tanqidiy, diniy, iqtisodiy, ilmiy, o'quv, publitsistik, reklama va boshqalar. Bu shuni ko'rsatadiki, inson faoliyatining har qanday jabhasiga mansub bo'lgan diskurs tur, tiplari mavjud.

Diskurs bir paytning o'zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, hamda ushbu faoliyatning mahsulidir. Shuningdek, diskurs bu insonlarning o'zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir-biriga turli fikrlarni va ma'lumotlarni yetkazishi va bularni yetkazishda turli vositalardan foydalanishi va eng asosiysi ikkala suhbatdosh uchun ham tushunarli bo'lgan jarayon hisoblanadi. Diskurs dialogik hamda monologik shaklda uchrashi mumkin.

Diskurs masalasida ko'plab tadqiqotlar olib borgan olimlar diskursni ikki xil (yozma va og'zaki) shaklda ham uchrashini ta'kidlashgan. Lekin ba'zi olimlar diskurs bu og'zaki nutq, yozma nutq esa – matndir deb ta'kidlaydilar. Xususan, Sh. Safarov o'zining "Pragmalingvistika" kitobida "Diskurs inson ongli faoliyatining ma'lum bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning bir ko'rinishidir"<sup>162</sup> deya ta'kidlaydi.

Shu o'rinda matn va diskursga olimlar tomonidan berilgan yana boshqa izohlarga ham to'xtalsak, yuqorida keltirilgan fikr qanchalik o'rinli yoki asossiz ekanligini bilib olamiz. Germaniyalik tilshunos olim Hartmut Haberland matnni turli joyda va paytda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan predmet (a thing), diskursni esa, aniq zamon va makonda kechayotgan hodisa (event) deb hisoblaydi. Uning qayd etishicha, "matndan cheklanmagan miqdorda foydalanish mumkin, uni bir joydan ikkinchisiga ko'chirish imkoni bor, diskurs – ayni vaqtda kechayotgan jarayon, u har safar qayta yaratiladi" (Haberland 1999: 914)<sup>163</sup>. Matnni turg'un, tayyor mahsulot, diskursni ayni vaqtda bo'lib o'tayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin qilinishi esa, ularning keskin farqlanishiga sabab bo'ladi.

Matn va diskurs o'zaro to'qnash keladigan yana bir nuqta madaniyatdir. Diskurs va matn hodisalarining har ikkisida, kommunikantlar ongli faoliyati to'qnashadigan jarayondir. Ongli faoliyat esa, har doim ma'naviy-madaniy asosli bo'ladi. Bu fikrlar esa, diskursiv faoliyat va matn shakllanishi madaniy jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Boshqa bir sabab, diskurs, diskursiv faoliyatda ulashilmoqchi ma'lumotga mos mazmun-mohiyat yaratiladi va diskurs jarayoni madaniyatning aniq bir zamon-makon maydonida, ma'lum kommunikativ muhitda kechadi. Nutqning har qanday ko'rinishida shubha yo'qki, avvalo so'zlovchi ijtimoiy mavqeyi, madaniyati, mentaliteti, dunyoqarashi va jamiyatda amalda bo'lgan axloqiy-etik normalarni o'zida mujassam qilgan ijtimoiy-madaniy axborot vujudga keladi. Biz esa, ular lisoniy faoliyatini tahlil qilish orqali kommunikantlar tilining madaniy va o'ziga xos xususiyatlari haqidagi lingvomadaniy bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Biror maqsad bilan ifoda etiladigan muloqot mazmuni va so'zlovchi xohishiga bog'liq bo'lmagan holatda tinglovchi idroki jarayonida hosil bo'ladigan ma'lumot mazmuni bir-birini inkor qilmaydi va buni aksi o'laroq, ular o'zaro birikib, muloqot jarayoni samaradorligini belgilovchi omil bo'ladilar. "Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg'unligi muloqot tizimi

<sup>161</sup> Stepanov Moscow: RSUH, 1995 Schiffrin Deborah (1994). Approaches to discourse. Oxford, England: Blackwell

<sup>162</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika. -T.:2008. – 249-b

<sup>163</sup> Haberland H. Text, discourse, discours: the latest report from the terminology vice squad. -D.:1999. – 914-b

makrobirligining yaxlitligini ta'minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e'tirof etilmoqda"- deb yozadi Sh. Safarov "Pragmalingvistika"<sup>164</sup> kitobida. Bu esa, yuqorida diskurs haqida yuritgan fikrlarimizni tasdiqlaydi. Lekin Y. S. Kubryakova bunga aksi o'laroq, "tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida diskursning umumiy qabul qilingan biror bir ta'rifi mavjud emas" - deya ta'kidlaydi. (Kubryakova 2000:6)<sup>165</sup>. Uning o'zi esa, diskurs va diskursiv faoliyatga, ma'lumot, yangi bilim berish hodisasi deya ta'rif berib o'tgan.

Diskursga yuqorida keltirganlarimiz fikrlar, olimlar e'tiroflarida uni keng ma'no, umumlashtiruvchi mazmunda tatbiq etilishi, insonning ongli faoliyatiga, muloqot tizimiga uzviy bog'liq boshqa fanlar: psixologiya, falsafa, jamiyatshunoslikda ancha vaqtdan beri mavjud qoidadir.

Xulosa qilib ayganda muloqot davomida, inson shaxslararo munosabatini amalga oshirish funksiyasidan tashqari, matn qurish va fikrlarimizni ketma-ketlikda ifoda etish vazifasini bajargani uchunda, hozirda mavjud sohalar, yashayotganimiz globallashuv va yangi texnologiyalar davrida vujudga keladigan yangi sohalar diskursi o'ziga xosliklarini o'rganish lozimligi sababidan diskursni turli tomonlama tadqiq qilish talabi aktualligicha qolmoqda.

### References:

1. Haberland H. Text, discourse, discours: the latest report from the terminology vice squad. -D.:1999. – 914-b
2. Кубрякова Е. Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты. -P.:2000. – 9-б
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. -T.:2008. – 318 b
4. Zellig S.Harris (1952). Discourse Analysis (Journal article). Linguistic Society of America
5. Gertman 1996. 90-b
6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7998832>
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7992890>
8. Y. S. Stepanov Moscow: RSUH, 1995 Schiffirin Deborah (1994). Approaches to discourse. Oxford, England: Blackwell.
9. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
10. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 348-354.
11. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 348-354.

<sup>164</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika. -T.:2008. – 318 b

<sup>165</sup> Кубрякова Е. Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты. -P.:2000. –

12. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "The emergence of the concept of "historical memory" in linguistics and the history of its socio-cultural formation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.3 (2022): 169-173.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)* 2.2 (2024): 371-377.
14. Rahmonova, Gulnoza, and Dildora Djafarova. "Explanation of the term" neologism." in linguistics. In *Конференции*. 2021.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Fransuz va o 'zbek frazeologiyasida "tarixiy хотира" ni ifodalashda til o 'yinlarini o 'zaro ta'siri (ahamiyati)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.1 (2021): 255-259.
16. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
17. Яхшибоева, Нодира. "ТУРИСТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК ОДИН ИЗ ОСОБЫХ ВИДОВ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ДИСКУРСА." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.6 (2023): 879-884.